O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktor o‘rinbosari

_____ I.I.Isomov

“___” _____ 2026-yil

13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni

DASTURI

Toshkent 2026

Scanned with CamScanner

Annotatsiya

Ushbu dastur 13.00.01 – "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarini tashkil etish hamda talabgorlarning pedagogika faniga oid fundamental bilimlari, nazariy-metodologik tayyorgarligi, ilmiy-tahliliy fikrlashi va tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlik darajasini baholashga mo'ljallangan.

Dastur mazmuni ta'lim va ilm-fan sohasining me'yoriy-huquqiy asoslari, pedagogika nazariyasi va didaktikasi, pedagogik ta'limotlar tarixi, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim transformatsiyasi jarayonlarini qamrab oladi. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashning nazariy-pedagogik asoslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dastur asosida talabgorlarning pedagogik hodisa va jarayonlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, pedagogik nazariya va tarixiy tajribalarni qiyosiy baholash, zamonaviy ta'lim muammolarini aniqlash hamda ularni tadqiq etishning metodologik yondashuvlari va usullarini asoslashga doir bilim va ko'nikmalari baholanadi.

Tuzuvchi: p.f.d.,(DSc) Haqnazarova Nilufar Kuranboyevna

Taqrizchilar: p.f.d., professor Adizov Bahtiyor Adizovich
p.f.d., DSc, professor Mamatov Dilmurod Narmuradovich

Mazkur dastur Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2026-yil «15» iyundagi yig'ilishida ko'rib chiqilib, tasdiqlangan (02-son bayonnoma).

Scanned with CamScanner

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagogika fanini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini mustahkamlashni talab etmoqda. Bu jarayonda pedagogika fanining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish va zamonaviy ta’lim muammolarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dastur 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko‘rayotgan talabgorlar uchun mo‘ljallangan. Dastur talabgorlarning pedagogika nazariyasi va tarixi bo‘yicha bilimlarini, ilmiy tadqiqotga tayyorgarligini hamda pedagogik jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini baholashga yo‘naltirilgan.

Dastur quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Ta’lim va ilm-fanning me’yoriy-huquqiy asoslari: ta’lim sohasidagi davlat siyosati, ta’lim va ilmiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning huquqiy asoslari.

Pedagogika nazariyasi va didaktika: pedagogika fanining predmeti va asosiy kategoriyalari, shaxs rivojlanishi va tarbiyasi, pedagogik jarayon qonuniyatlari, ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta’lim natijalarini baholash.

Pedagogik ta’limotlar tarixi: pedagogik fikrlarning tarixiy rivojlanishi, Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, jadidchilik harakati, milliy pedagogik meros va uning zamonaviy ta’limdagi ahamiyati.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi: pedagogik tadqiqotning ilmiy asoslari, maqsad va vazifalari, tadqiqot metodlari, pedagogik modellashtirish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, diagnostika, monitoring va tadqiqot natijalarini baholash.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta’lim transformatsiyasi: raqamli pedagogika, masofaviy va aralash ta’lim, sun’iy intellektdan foydalanish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, inklyuziv ta’lim va xalqaro baholash dasturlari.

Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi: pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlik, kattalar ta’limi, pedagogik refleksiya, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari, individual kasbiy rivojlanish hamda malaka oshirish samaradorligini baholash.

Mazkur dastur talabgorlarning fundamental pedagogik bilimlari, ilmiy fikrlash qobiliyati va tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Scanned with CamScanner

ASOSIY QISM

"Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha talab qilinadigan zaruriy bilimlar mazmuni

I. Ta'lim va ilm-fanning me'yoriy-huquqiy asoslari

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim olish huquqi va uning kafolatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, uning maqsadi va asosiy prinsiplari. Ta'lim tizimining uzluksizligi, ta'lim turlari va ta'lim olish shakllari. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarining mazmuni hamda qo'llanish sohalari.

Ilmiy faoliyat va oliy ta'limdan keyingi ta'lim. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni va uning asosiy qoidalari. Ilmiy faoliyatni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslari. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi. Tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikni tashkil etish tartibi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari. Uzluksiz malaka oshirishning shakllari va ularni tashkil etish tartibi. Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, o'quv dasturlarini shakllantirish, malaka oshirish jarayonini tashkil etish va uning natijadorligini baholashning tashkiliy-huquqiy asoslari.

Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga oid ustuvor maqsad va vazifalar. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlarning ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati.

II. Pedagogika nazariyasi va didaktika

Pedagogika fanining nazariy asoslari. Pedagogika fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik fanlar tizimi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Pedagogik antropologiyaning nazariy asoslari.

Shaxs rivojlanishi va ijtimoiylashuvi. Individ, shaxs va individuallik tushunchalari. Shaxs rivojlanishining qonuniyatlari. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiyaning shaxs kamolotiga ta'siri. Shaxsning yosh va individual xususiyatlari.

Yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogik jarayonning mohiyati, tarkibiy qismlari va asosiy funksiyalari. Ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari.

Didaktikaning nazariy asoslari. Didaktikaning predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalari. Ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi. O'qitish va o'rganish

Scanned with CamScanner

faoliyatining o‘zaro aloqadorligi. Ta’lim qonuniyatlari va didaktik tamoyillar. Zamonaviy ta’lim paradigmalari.

Ta’lim mazmuni. Ta’lim mazmunini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ta’lim mazmunini belgilovchi hujjatlar. O‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va darsliklar. Ta’lim mazmunini loyihalash tamoyillari.

Ta’lim metodlari va vositalari. Ta’lim metodlari va usullarining mohiyati. Ta’lim metodlarining tasnifi. Muammoli, interfaol va evristik ta’lim metodlari. Ta’lim metodlarini tanlash mezonlari. Ta’lim vositalari va ularning didaktik funksiyalari.

Ta’limni tashkil etish shakllari. Ta’limni tashkil etishning individual, guruhli va jamoaviy shakllari. Dars, ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning didaktik xususiyatlari. Mustaqil ta’limni tashkil etishning pedagogik asoslari.

Pedagogik yondashuvlar. Kompetensiyaviy, tizimli, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar. Ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish. Pedagogik yondashuvlarni tanlashning ilmiy asoslari.

Ta’lim natijalarini baholash. Pedagogik nazorat va baholashning maqsadi hamda vazifalari. Bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni baholash. Baholash mezonlari, shakllari va metodlari. Formativ va summativ baholash.

Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayonining mohiyati, maqsadi va vazifalari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya metodlari va ularning tasnifi. Jamoaning shaxs tarbiyasidagi o‘rni. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash.

Tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari. Ma’naviy-axloqiy, aqliy, fuqarolik, vatanparvarlik, huquqiy, ekologik, mehnat, jismoniy va estetik tarbiya. Oila va ta’lim tashkilotining tarbiyaviy hamkorligi. Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish.

Ta’lim va tarbiya samaradorligi. Ta’lim va tarbiya sifatiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar. Pedagogik faoliyat natijalarini baholash. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.

III. Pedagogik ta’limotlar tarixi

Pedagogik ta’limotlar tarixi fan sifatida. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogik fikrlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Pedagogik merosni o‘rganish manbalari va metodlari. Pedagogik ta’limotlarni davrlashtirish.

Qadimgi davrlarda ta’lim-tarbiya. Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rimda ta’lim-tarbiya tizimi. Qadimgi yozma manbalarda pedagogik qarashlar. “Avesto”da ta’limiy-axloqiy g‘oyalar.

VII–XIV asrlarda pedagogik fikrlar rivoji. Islom madaniyatining ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablari va madrasalar. Hadis ilmida axloqiy tarbiya masalalari. Imom Buxoriy va Imom Termiziyning ma’naviy-ma’rifiy merosi.

Sharq Uyg‘onish davri pedagogikasi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr

Scanned with CamScanner

Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-pedagogik qarashlari. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy va Kaykovus asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari.

XIV–XVI asrlarda pedagogik fikrlar. Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan va ma'rifatning rivojlanishi. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik qarashlari. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Jaloliddin Davoniyning ta'limiy-axloqiy merosi. Tasavvuf ta'limotida shaxs tarbiyasi.

XVII–XIX asrlarda ta'lim-tarbiya. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida maktab va madrasalar faoliyati. Ta'lim mazmuni va tarbiya an'analari. Munis Xorazmiy va Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning ma'rifiy qarashlari.

Turkistonda jadidchilik pedagogikasi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta'lim tizimi. Jadidchilik harakati va yangi usul maktablari. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va Abduqodir Shakuriyning pedagogik faoliyati.

XX asrda O'zbekistonda pedagogik fikrlar. 1924–1945-yillarda ta'lim tizimi va pedagogika fani. 1945–1991-yillarda ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishi. Mazkur davrlardagi pedagogik qarashlar va ta'lim islohotlari.

Mustaqillik davrida pedagogik fikrlar rivoji. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish bosqichlari. Milliy pedagogik qadriyatlarning tiklanishi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalar va ta'limni rivojlantirish yo'nalishlari.

Jahon pedagogik ta'limotlari. Yan Amos Komenskiyning didaktik tizimi. I.G. Pestalotssi va A. Distervegning pedagogik qarashlari. K.D. Ushinskiy va L.N. Tolstoyning pedagogik merosi. XIX–XX asrlarda reformatorlik pedagogikasi.

Xalq pedagogikasi va etnopedagogika. Xalq pedagogikasining manbalari va tarbiyaviy imkoniyatlari. Etnopedagogikaning predmeti va vazifalari. Milliy tarbiya an'analari va ularning zamonaviy pedagogik jarayondagi ahamiyati.

Pedagogik ta'limotlarning qiyosiy tahlili. Sharq va G'arb pedagogik qarashlarining umumiy va farqli jihatlari. Tarixiy pedagogik tajribadan zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish.

IV. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi

Pedagogik tadqiqotning metodologik asoslari. Ilmiy-pedagogik tadqiqot tushunchasi va metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasining darajalari va asosiy tamoyillari. Ilmiy muammoni aniqlash va uning dolzarbligini asoslash.

Pedagogik tadqiqotning tarkibiy qismlari. Tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Ilmiy gipoteza va uni shakllantirish talablari. Tadqiqotning mantiqiy tuzilishi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari. Nazariy va empirik tadqiqot metodlari. Kuzatish, suhbat, anketa, intervyu, qiyosiy tahlil va ekspert baholash. Tadqiqot metodlarini tanlash mezonlari.

Scanned with CamScanner

Scanned with CamScanner

Pedagogik modellashtirish. Pedagogik model tushunchasi. Modellashtirishning maqsadi, vazifalari va bosqichlari. Pedagogik jarayon va tizimlarni modellashtirishning ilmiy asoslari.

Pedagogik tajriba-sinov. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi, vazifalari va bosqichlari. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish. Tajriba-sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilish.Pedagogik diagnostika va monitoring. Diagnostikaning maqsadi va vazifalari. Baholash mezonlari, indikatorlari va darajalari. Pedagogik monitoringning mazmuni va metodlari.Ilmiy tadqiqot natijalarini baholash. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va validligi. Ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyat. Ilmiy tadqiqotda akademik halollik va tadqiqot etikasi.

V. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta'lim transformatsiyasi

Ta'lim transformatsiyasi. Ta'lim transformatsiyasining mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Ta'lim tizimidagi zamonaviy o'zgarishlarning pedagogik mazmuni. Pedagogik innovatsiyalar va ularni amaliyotga joriy etish shart-sharoitlari.

Raqamli pedagogika. Raqamli pedagogikaning nazariy asoslari. Raqamli ta'lim muhiti va elektron ta'lim resurslari. Raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari.

Masofaviy va aralash ta'lim. Masofaviy va aralash ta'limning pedagogik modellari. Ularning afzalliklari va cheklovlari. Ta'lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish.

Sun'iy intellekt va ta'lim. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Sun'iy intellekt vositalarining didaktik vazifalari va cheklovlari. Akademik halollik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va etik talablar.

Innovatsion pedagogik yondashuvlar. Adaptiv ta'lim va uning nazariy asoslari. Ta'lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish. Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik usullari.

Inklyuziv ta'lim. Inklyuziv ta'limning mohiyati, maqsadi va tamoyillari. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslar uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish. Ta'lim jarayonida individual ehtiyojlarni hisobga olish.

Xalqaro baholash dasturlari. PISA, PIRLS, TIMSS va ICILS xalqaro tadqiqotlarining maqsadi va metodologiyasi. Xalqaro baholash natijalaridan ta'lim sifatini takomillashtirishda foydalanish.

Qiyosiy pedagogika va xorijiy tajriba. Qiyosiy pedagogikaning predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari. Xorijiy ta'lim tizimlarining pedagogik xususiyatlari. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish.

Ta'lim jarayonida zamonaviy ilmiy yondashuvlar. Kognitiv psixologiya va neyrofanlarning ta'limga oid ilmiy asoslangan natijalari. Ta'lim jarayonida bilish faoliyati, xotira, diqqat va motivatsiya omillarini hisobga olish.

Ta'lim sifatini baholash va monitoring. Ta'lim sifatining pedagogik ko'rsatkichlari. Ta'lim natijalarini diagnostika qilish. Monitoring va baholash natijalaridan pedagogik jarayonni takomillashtirishda foydalanish.

VI. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining nazariy-pedagogik asoslari

Pedagogik faoliyat va kasbiy kompetentlik. Pedagogik faoliyatning mohiyati, tarkibiy qismlari va asosiy funksiyalari. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlikning mazmuni. Pedagogik muloqot madaniyati va refleksiv faoliyat.

Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish tushunchasi, maqsadi va asosiy tamoyillari. Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Kasbiy rivojlanishning shakllari va pedagogik shart-sharoitlari.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Qayta tayyorlash va malaka oshirishning maqsadi, vazifalari va pedagogik xususiyatlari. Kattalar ta'limining (andragogika) nazariy asoslari. Malaka oshirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish.

Kasbiy rivojlanishni individuallashtirish. Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash. Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish. Pedagoglarning mustaqil ta'limi va kasbiy refleksiyasi.

Kasbiy rivojlanish natijalarini baholash. Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini diagnostika qilish. Malaka oshirish natijadorligini baholash mezonlari va indikatorlari. Kasbiy rivojlanish jarayonida pedagogik monitoringdan foydalanish.

"Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligidan imtihon savollari

I. Ta'lim va ilm-fanning me'yoriy-huquqiy asoslari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim olish huquqi va uning kafolatlari qanday belgilangan?
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari qanday ifodalangan?
3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi, ta'lim turlari va ta'lim olish shakllari qanday belgilangan?
4. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunda ilmiy faoliyatni tashkil etishning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
5. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga muvofiq oliy ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etish va ilmiy kadrlar tayyorlash tartibi qanday belgilangan?
6. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-son qarorida oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini

Scanned with CamScanner

oshirish tizimining qanday vazifalari belgilangan?

7. Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish shakllari va ularning tashkiliy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha qanday ustuvor vazifalar belgilangan?
9. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsad va yo'nalishlari nimalardan iborat?
10. O'zbekistonda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlarning pedagog kadrlar tayyorlash va kasbiy rivojlantirish tizimiga ta'siri qanday namoyon bo'lmoqda?

II. Pedagogika nazariyasi va didaktika

11. Pedagogika fanining obyekti, predmeti, asosiy kategoriyalari va vazifalari nimalardan iborat?
12. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va pedagogik tadqiqotlarda fanlararo yondashuvning ahamiyati nimada?
13. Pedagogik antropologiyaning predmeti va shaxs rivojlanishini o'rganishdagi nazariy ahamiyati nimadan iborat?
14. Shaxs rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi o'rtasida qanday pedagogik bog'liqlik mavjud?
15. Shaxs rivojlanishiga irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya qanday ta'sir ko'rsatadi?
16. Yaxlit pedagogik jarayonning mohiyati, tarkibiy qismlari va asosiy qonuniyatlari nimalardan iborat?
17. Didaktikaning predmeti, asosiy kategoriyalari va pedagogika fanlari tizimidagi o'rni qanday?
18. Ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlari va didaktik tamoyillari o'rtasidagi bog'liqlik nimada?
19. Zamonaviy ta'lim paradigmalari qanday xususiyatlarga ega va ular bir-biridan qanday farqlanadi?
20. Ta'lim mazmunini shakllantirishning nazariy asoslari va asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
21. Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarining ta'lim mazmunini belgilashdagi vazifalari qanday?
22. Ta'lim metodlari qanday tasniflanadi va ularni tanlashda qaysi pedagogik mezonlar hisobga olinadi?
23. Muammoli, interfaol va evristik ta'lim metodlarining didaktik xususiyatlari va farqli jihatlari nimalardan iborat?
24. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari va mustaqil ta'limning pedagogik xususiyatlari qanday?

Scanned with CamScanner

25. Kompetensiyaviy, tizimli, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligi nimada?
26. Ta’lim natijalarini baholashning asosiy tamoyillari, mezonlari va metodlari nimalardan iborat?
27. Tarbiya jarayonining mohiyati, maqsadi, qonuniyatlari va asosiy tamoyillari qanday?
28. Tarbiya metodlari qanday tasniflanadi va ularni tanlashda qanday pedagogik shart-sharoitlar hisobga olinadi?
29. Ma’naviy-axloqiy, fuqarolik, vatanparvarlik, ekologik va estetik tarbiyaning maqsadi, mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligi nimada?
30. Ta’lim va tarbiya sifatini ta’minlashning asosiy pedagogik shart-sharoitlari va samaradorlik mezonlari qanday?

III. Pedagogik ta’limotlar tarixi

31. Pedagogik ta’limotlar tarixining predmeti, vazifalari, tadqiqot manbalari va davrlashtirish tamoyillari nimalardan iborat?
32. Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rimda ta’lim-tarbiya tizimi hamda pedagogik qarashlar qanday rivojlangan?
33. “Avesto”da ta’lim-tarbiya va axloqiy kamolotga oid qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
34. Islom madaniyati va Sharq Uyg‘onish davrida ta’lim-tarbiya hamda pedagogik fikrlar rivojining asosiy xususiyatlari qanday?
35. Abu Nasr Forobiyning komil inson, ta’lim va tarbiyaga oid pedagogik qarashlari nimalardan iborat?
36. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilish, ta’lim va shaxs tarbiyasiga oid qarashlari qanday mazmunga ega?
37. Abu Ali ibn Sinoning ta’lim metodlari, shaxs kamoloti va tarbiya haqidagi pedagogik g‘oyalari nimalardan iborat?
38. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg‘ariy asarlarida qanday ta’limiy-axloqiy qarashlar ifodalangan?
39. Ahmad Yugnakiy va Kaykovusning ta’lim-tarbiya hamda axloqiy kamolotga oid qarashlari qanday?
40. Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan, ta’lim va ma’rifat rivojining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
41. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning ta’lim, tarbiya va insonparvarlikka oid qarashlari qanday?
42. Tasavvuf ta’limotida ma’naviy-axloqiy tarbiya va shaxs kamoloti masalalari qanday yoritilgan?
43. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelish sabablari va yangi usul maktablarining pedagogik xususiyatlari nimalardan iborat?

Scanned with CamScanner

44.Abdulla Avloniyning pedagogik merosi va milliy tarbiya nazariyasi rivojiga qo‘shgan hissasi qanday?
45.Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’lim islohotlari hamda ma’rifatparvarlik faoliyatining ahamiyati nimada?
46.Yan Amos Komenskiyning didaktik tizimi qanday tamoyillarga asoslangan va uning pedagogika nazariyasi rivojidagi o‘rni qanday?
47.XX asrda O‘zbekistonda pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari hamda ilmiy-pedagogik qarashlarning taraqqiyoti.
48.K.D. Ushinskiyning pedagogik merosi va ta’lim-tarbiya nazariyasiga qo‘shgan hissasi nimalardan iborat?
49.Xalq pedagogikasi va etnopedagogikaning nazariy asoslari, tarixiy manbalari va tarbiyaviy ahamiyati qanday?
50.Sharq va G‘arb pedagogik ta’limotlarining umumiy va farqli jihatlari hamda ularning zamonaviy ta’limdagi ahamiyati nimada?

IV. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi

51.Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasining mohiyati, darajalari va asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
52.Pedagogik tadqiqot muammosi qanday aniqlanadi va tadqiqot mavzusining ilmiy dolzarbligi qanday asoslanadi?
53.Pedagogik tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik qanday ta’minlanadi?
54.Ilmiy gipotezaning mohiyati nimada va uni shakllantirishga qanday talablar qo‘yiladi?
55.Pedagogik tadqiqotlarda nazariy va empirik metodlar qanday tasniflanadi va qo‘llaniladi?
56.Pedagogik tadqiqotlarda kuzatish, suhbat, anketa va intervyu metodlarining imkoniyatlari hamda cheklovlari qanday?
57.Pedagogik tadqiqotlarda qiyosiy tahlil va ekspert baholash metodlaridan foydalanishning ilmiy asoslari nimalardan iborat?
58.Pedagogik modellashtirishning mohiyati, asosiy bosqichlari va pedagogik tizimlarni tadqiq etishdagi ahamiyati qanday?
59.Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi, tuzilishi va asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
60.Pedagogik tajriba-sinovda tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish hamda natijalarni qiyoslash qanday tamoyillarga asoslanadi?
61.Pedagogik diagnostikaning mohiyati, mezonlari, indikatorlari va baholash darajalari qanday belgilanadi?
62.Pedagogik monitoringning maqsadi, vazifalari va pedagogik jarayonni takomillashtirishdagi ahamiyati nimada?

Scanned with CamScanner

63. Pedagogik tadqiqot natijalarining ishonchliligi va validligini ta'minlashning asosiy usullari qanday?
64. Pedagogik tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati qanday asoslanadi?
65. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda akademik halollik, tadqiqot etikasi va ilmiy manbalardan foydalanishga qanday talablar qo'yiladi?

V. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta'lim transformatsiyasi

66. Ta'lim transformatsiyasining mohiyati, asosiy yo'nalishlari va pedagogik jarayonlarga ta'siri qanday?
67. Raqamli pedagogikaning nazariy asoslari va raqamli ta'lim muhitini tashkil etish tamoyillari nimalardan iborat?
68. Raqamli ta'lim resurslarining didaktik imkoniyatlari qanday va ulardan foydalanish samaradorligi qanday baholanadi?
69. Masofaviy va aralash ta'limning pedagogik modellari, afzalliklari va cheklovlari nimalardan iborat?
70. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning didaktik imkoniyatlari va pedagogik cheklovlari qanday?
71. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy talablari nimalardan iborat?
72. Adaptiv ta'limning nazariy asoslari va ta'lim jarayonini individuallashtirishdagi imkoniyatlari qanday?
73. Pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning asosiy ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari nimalardan iborat?
74. Ta'lim oluvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik yondashuvlari qanday?
75. Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va inklyuziv ta'lim muhitini tashkil etish tamoyillari nimalardan iborat?
76. Ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim jarayonini differensiallashtirishning pedagogik asoslari qanday?
77. PISA, PIRLS, TIMSS va ICILS xalqaro baholash tadqiqotlarining maqsadi, metodologiyasi va ta'lim sifatini baholashdagi ahamiyati nimada?
78. Qiyosiy pedagogikaning predmeti, tadqiqot metodlari va xorijiy pedagogik tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish tamoyillari qanday?
79. Kognitiv psixologiya va neyrofanlarning ilmiy asoslangan natijalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari qanday?
80. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik diagnostika, monitoring va baholash natijalaridan qanday foydalaniladi?

Scanned with CamScanner

VI. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining nazariy-pedagogik asoslari

81. Pedagogik faoliyatning mohiyati, tarkibiy tuzilishi va asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
82. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlikning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda o‘zaro bog‘liqligi nimada?
83. Pedagogik muloqot madaniyati, kommunikativ kompetentlik va refleksiv faoliyatning pedagog kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati qanday?
84. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining nazariy asoslari, tamoyillari va tashkiliy shakllari nimalardan iborat?
85. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning maqsadi, vazifalari hamda pedagogik xususiyatlari qanday?
86. Kattalar ta’limining (andragogika) asosiy tamoyillari nimalardan iborat va ular pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonida qanday qo‘llaniladi?
87. Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashda qanday pedagogik diagnostika metodlari va baholash mezonlaridan foydalaniladi?
88. Pedagog kadrlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish qanday nazariy-pedagogik asoslarga tayanadi?
89. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida zamonaviy pedagogik hamda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari qanday?
90. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va malaka oshirish natijadorligini baholashning asosiy mezonlari, indikatorlari va metodlari nimalardan iborat?

Scanned with CamScanner

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan yangi tahrir. Matn: elektron URL: https://lex.uz/docs/6445145.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. – Matn : elektron URL: https://lex.uz/docs/5013007.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni : 2019-yil 29-oktabr, O'RQ-576-son. – Matn : elektron URL: https://lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 415-son qarori. – Matn : elektron URL: https://lex.uz/docs/-7014313.

II. Asosiy ilmiy va o'quv adabiyotlari

7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari : monografiya – Toshkent : Fan, 2007. – 143 b.

8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot: monografiya /– Toshkent : Fan, 2011. – 232 b.

9. Mavlonova R. Pedagogika nazariyasi va tarixi : darslik / Toshkent : Fan va texnologiya, 2010. – 464 b. – ISBN 978-9943-10-381-0.

10. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: darslik / Toshkent : Sano-standart, 2017. – 418 b. – ISBN 978-9943-5002-3-5.

11. Xodjayev B.X. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi: darslik / Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2018. – 191 b. – ISBN 978-9943-5172-0-2.

12. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti: monografiya/ A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev. – Toshkent : Fan, 2009. – 145 b.

13. Isyanov R.G. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish texnologiyalari : monografiya – Toshkent: Fan, 2011. – 182 b.

14. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari: o'quv qo'llanma / – Toshkent : Fan, 2006. – 261 b. – ISBN 5-648-03428-5.

III. Elektron axborot resurslari

15. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi : rasmiy veb-sayt. – URL: https://lex.uz.

16. ZiyoNET ta'lim axborot tarmog'i: elektron resurs. – URL: https://ziyonet.uz.

17. Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti elektron kutubxonasi : elektron resurs. – URL: https://lib.bimm.uz.

18. UNESCO : rasmiy veb-sayt. – URL: https://www.unesco.org.

19. OECD : rasmiy veb-sayt. – URL: https://www.oecd.org.

Scanned with CamScanner

BAHOLASH MEZONLARI

13.00.01 – "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonida talabgorlar bilimini baholash mezonlari

Nazorat shakli va maksimal baholar	Imtihon
Maksimal ball	100 ball
Shakli	Yozma, og'zaki
Muddati	Belgilangan sanada

Talabgorlarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Ball	Baho	Baholash mezonlari
86–100	A'lo	Talabgor pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi bo'yicha chuqur bilimga ega, savollarni to'liq va ilmiy asosda yoritadi. Mustaqil fikr yuritadi, pedagogik nazariyalarni tahlil va qiyoslay oladi, ilmiy xulosalar chiqaradi hamda nazariy bilimlarini ta'lim amaliyoti bilan bog'lay oladi.
71–85	Yaxshi	Talabgor fan bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega, savollarning asosiy mazmunini to'g'ri tushuntiradi. Pedagogik tushuncha va qonuniyatlarni izohlay oladi, mustaqil fikr bildiradi, biroq ayrim masalalarni ilmiy tahlil qilishda kichik kamchiliklarga yo'l qo'yadi.
56–70	Qoniqarli	Talabgor fan bo'yicha asosiy tushunchalarni biladi, savollarga qisman javob beradi. Pedagogik nazariyalar va ilmiy yondashuvlar haqida umumiy tasavvurga ega, biroq javoblarida ilmiy asoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarishda kamchiliklar mavjud.
0–55	Qoniqarsiz	Talabgor fan bo'yicha zarur nazariy bilimlarni yetarli darajada egallamagan, savollarning mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Pedagogik tushunchalarni izohlash, ilmiy fikr yuritish va asosli xulosa chiqarishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi.

Tuzuvchi: **p.f.d.,(DSc). N. K. Haqnazarova**

Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlari bo'limi boshlig'i: **p.f.f.d., dotsent. D. I. Normatova**

Scanned with CamScanner